

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**

ORKESTR PARTIYALARINI O'RGANISH

Ma'ruzalar matni

TOSHKENT- 2018

Keyingi yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasida ma'ruzali fanlarni muammoli yo'nalishdagi ma'ruzalar shaklida o'qitish yo'lga qo'yildi. Ushbu ma'ruzalar matnini tuzishda ham san'at sohasida, xususan musiqa san'atiga oid fanlarni zamon talabidan kelib chiqib, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan holda mashg'ulotlarni olib borishga asosiy e'tibor qaratilgan.

"Cholg'ushunoslik" o'quv fani bo'yicha ma'ruzalar mavzusi va soni joriydagি ishchi o'quv rejasida ajratilgan soatlarga, fanning ishchi dasturi asosida tuzilgan tematik planga binoan belgilangan.

Tuzuvchi-muallif: Katta o'qituvchi Y.Niyozov

Taqrizchi: professor B. S. Solixov

O'zDKning Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan ko'paytirishga tavsiya etilgan (2017 yil, 5 may, bayonnomma № 5).

1- mavzu: Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari

«Cholg'ushunoslik» fanining asosiy maqsadi nimalardan iborat, deb bilasizlar?... Bu fan ma'lum bir cholg'uda professional ijrochi bo'lish uchun o'qishga kirgan, qolaversa, «Orkestr dirijori» malakasini olish uchun qo'shimcha o'qiydigan talabalarga cholg'ular haqida mukammal bilimlarni o'rgatishdan iborat. Bu fan o'quv rejalariga muvofiq belgilangan semestrda ma'ruzalar tarzida o'tiladi va keyingi semestrlarda o'rganiladigan - «Partitura o'qish», «Cholg'ulashtirish» va «Dirijyorlik» kurslarini yanada chuqurroq, mukammal o'zlashtirib olishlariga katta yordam beradi.

Siz talabalar ma'ruzalarni, musiqiy misollarni tinglab, cholg'ularning tembri, tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, rang-barang ijob uslublari haqida aniq tasavvurga ega bo'lasiz. Ta'lim yo'nalihsidan kelib chiqib faqat asosiy o'rganilishi lozim bo'lgan orkestr va uning cholg'ulari bilan chegaralanmay, balki birinchi darslardanoq turli orkestrlar, butun dunyoga keng tarqalgan boshqa cholg'ular haqida ham kerakli bilimlarni olasiz. Bu davr taqozosi, umumbashariy ta'lim talablariga javob beradi. Bir-biriga taqqoslab o'rganish talabalar dunyoqarashini, bilim chegarasini kengayib borishiga ko'mak beradi. Milliy cholg'ular qadriyati bilan birga jahon musiqa san'atidan ham xabardor bo'lasiz, umumiyyat savyangiz baland bo'ladi.

Mashg'ulotlarda orkestr jamoalari tuzilgandan keyin kompozitorlar tomonidan yozilgan asarlarda ijrochilik imkoniyatlarining kengayib borishi, janrlar xilma-xilligi haqida, katta to'liq orkestrlar va bir turdag'i cholg'ulardan tashkil qilinishi mumkin bo'lgan kichik jamoalar haqida ham so'z roritamiz.

Mazkur matnlar ta'lim yo'nalihsini va ixtisoslikning xususiyatlaridan kelib chiqib, fanning namunaviy va ishchi o'quv dasturi asosida ishlab chiqildi.

Asosiy adabiyot sifatida tavsiya etilayotgan - «cholg'ulashtirish bo'yicha amaliy namunalar va mashqlar» o'quv qo'llanmasi turli orkestrlar uchun dastlabki cholg'ulashtirish ishini o'rgatuvchi shu nomda yaratilayotgan turkum qo'llanma-lardan biri bo'lib, ya'ni, ma'lum bir asarni ko'pchilik bo'lib ijro etish uchun kuy yo'llari va b.ni cholg'ularga taqsimlab berish haqidagi bilimlarni beruvchi o'quv adabiyotidir. Boshqacha qilib aytganda, u ma'lum bir asarni ko'pchilik bo'lib ijro etish yo'lida p a r t i t u r a y a r a t i s h k o' n i k m a l a r i n i s h a k 11 a n t i r u v c h i bilimlar bazasini tashkil etadi. Ushbu kitob - **o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri** uchun cholg'ulashtirish ijodiy jarayoni qanday bo'lishi lozimligini o'rgatadi.

Bunday o'quv qo'llanma yaratilishini davr taqozosni, deb belgilash joiz. chunki, ko'p yillar mobaynida, xatto asrlardan-asrlarga osha ch o 1 g' u l a sh t i r i sh san'atining nozik sirlarini faqat shu fandan dars bera oladigan, orkestrlar uchun ko'plab asarlar partituralarini yaratgan u s -to z - ko m p o z i to r 1 a r og'zaki tushunchalar orqali talabalarga, musiqachilarining yangi avlodiga o'rgatib kelishgan. Boshqa orkestrlar turlari uchun chet tillarida bir talay o'quv adabiyotlari yaratilgan va ulardan hozirgi davrgacha unumli foydalilanigan. Endi bizning talaba - yoshlarimiz bu ijodiyot sohasini ham tizimli asosda bizga yaqin bo'lgan - o'zbek va rus tillarida tuzilgan maxsus o'quv qo'llanmalaridan nazariy asoslarini diqqat bilan o'qib, o'zlashtiradilar. Topshiriq sifatida berilayotgan ayrim mashqlarning esa amaliy namunalarini tahlil qilib, chalib ko'rib, berilgan boshqa mashqlar - topshiriqlarni bajarib o'zlarini ham cholg'ulashtirishni mustaqil o'rganib olishlari mumkin.

Shuni ta'kidlash joizki, cholg'ulashtirish ijodiy ishi bilan shug'ullanishdan oldin - orkestr, uning tarkibiga kiruvchi guruuhlar (cholg'ular turiga qarab), har bir cholg'uning paydo bo'lish tarixi, tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, badiiy va texnik imkoniyatlari, p a r t i t u r a d a joylashishi haqidagi bilimlarni o'rgatuvchi - «cholg'ushunoslik» fanidan ma'ruzalarni talabalar e'tibor bilan tinglab, «Partitura o'qish» fanini amaliy o'rganadilar, ko'plab jahon durdonalari bilan tanishadilar. Shunga qaramay qo'llanmada har bir cholg'ular guruuhlari uchun bajariladigan amaliy namunalar va mustaqil ishslash uchun berilayotgan topshiriq - mashqlardan oldin ularning (cholg'ularning) sozlanishi, diapazoni (yoziishi va eshitilishi bo'yicha), transpozitsiya qilinishi (ya'ni, yoziishi bir - eshitilishi boshqa) yoki qilinmasligi haqidagi

jadval beriladi.

Ushbu o'quv qo'llanma siz talabalarda cholg'ulashtirish ijodiy ishining dastlabki ko'nikmalari hosil bo'lishi uchun tezkor dastur vazifasini bajaradi. T o' l i q k a t t a o r k e s t r l a r t a r k i b i uchun partituralar yaratish ham ma'lum bir o'zlashtirish pog'onasi bo'lib, uni ustoz-shogird fan uchun ajratilgan soatlar hajmida birgalikda amalga oshiradilar.

"Cholg'ushunoslik" faning amaliy qismi boshlangunga qadar mazkur ma'ruzalar matnidan ham foydalanib, nazariy bilimlarni o'zlashtirib olishingiz lozim.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar mavjud... Mazkur fanni o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida siz bakalavriat talabalari:

- turli xil tarkibli orkestrlar (simfonik, damli, estrada, xalq cholg'ulari va boshqa kamer orkestrlari) uchun yaratilgan partitura turlarini;
- orkestr turlari (simfonik, damli, kamer, estrada, xalq cholg'ulari va b.)ni;
- orkestr cholg'ularining texnik va ifoda imkoniyatlarini;
- to'liq orkestrlar partiturasini ***bilishingiz kerak***;
- murakkab partituralarni tahlil etish hamda fortepianoda o'qish, cholg'u guruhlari, yakkanavoz partiyalar, cholg'u ansambl bo'ylab, shuningdek yaxlit tarzda, musiqaning tabiatini va qiyofasini anglash;
- turli xil tarkibdagi orkestrlar uchun amaliy cholg'ulashtirish;
- orkestrlar uchun har xil janrlardagi asarlarni moslashtirish ***ko'nikmalariga ega bo'lishingiz kerak***;
- jahon klassik musiqasi, shuningdek hozirgi zamon mualliflarining partituralarini o'rganish borasidagi bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llay olish;
- orkestr cholg'ularining ifoda vositalarini partiturada aks ettira bilish;
- orkestr cholg'ularining texnik imkoniyatlarini yaqqol belgilash;
- orkestr ijrochilik mahoratini yangicha talqin etish ***malakalariga ega bo'lishingiz kerak***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi nimadan iborat?

CHolg'ushunoslik fani ixtisosiy va umumkasbiy fanlar - CHolg'ulashtirish, Partitura o'qish, Ixtisoslik kabilalar bilan uslubiy jihatdan uzviy bog'liq va ulardan olingan bilimlarni ma'lum darajada to'ldirishga xizmat qiladi. o'quv rejada belgilangan semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi.

Fanning san'at tizimidagi o'rnini bilasizmi?...

"Cholg'ushunoslik" fani ixtisosiy fan hisoblanadi. Badiiy jamoalarda, ya'ni orkestrlar tomonidan ijro ettilayotgan asarlarni asosan ta'lim muassasasida o'rgangan bilimlari, ko'nikmalariga asoslangan holda ijodkor yaratadi. Tinglash yoki ijro jarayonida mazkur partituralardagi kamchilik va rotuqlarni o'rganish, tahlil qilish ham fanning ijodiy jarayonlar bilan bog'liqligini belgilaydi.

"Cholg'ushunoslik" fani talabalarga cholg'ular haqidagi bilimlarni amalda sinab, kompozitorlar yaratgan asarlarni partitura qilishni o'rgatadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan unumli foydalaniladi!...

Siz talabalarni mazkur fanni o'zlashtirishlaringizda o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, sintezatorlar hamda musiqiy komp'roter dasturlaridan foydalaniladi.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti mavjud!...

Mazkur fanni o'zlashtirishda ta'limning zamonaviy metodlari (xususan, interfaol), pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ijodiy o'quv jarayonida unumli qo'llaniladi. Axborot-resurs markazlari komp'roterlari, "Internet", "Ziyonet" kabi axborot resurs tarmoqlari, maxsus Veb-saytlar sahifalaridan unumli foydalanish, maxsus o'quv adabiyotlari - darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiyalar, nota grafikasi rozasidan amaliy komp'roter dasturlaridan keng foydalanish nazarda tutiladi.

Xalq cholg'ulari orkestri va uning partiturası. Orkestrlar tarixidan qisqacha ma'lumotlar eslaymiz... Cholg'ular va ularning paydo bo'lishi qadim-qadim davrlarga borib taqalishini eslaymiz... Ma'lumotlarga asoslanib, turli xalqlarning dastlabki musiqa cholg'ulari paydo bo'lish va rivoj topish davrlarining taxmin qilinishini eslaymiz... Zamonaviy ijrochilik amaliyotida qo'llanilayotgan cholg'ular haqida gapiramiz... Fanni o'zlashtirishimiz uchun zarur manbalar va adabiyotlar 1-mavzumiz oxirida berilgan, tanishib olaylik...

O'ZBEK XALQ CHOLG'ULARI ORKESTRINING TO'LIQ PARTITURASI VA UNI TASHKIL ETADIGAN CHOLG'U GURUHLARI HAQIDA

O'zbek xalq cholg'ulari orkestrining partiturası 5 ta cholg'ular guruhini o'z ichiga oladi. Bular:

Puflama cholg'ular guruhi (Kichik nay, Naylar, Surnaylar, Qo'shnaylar);

Torli-urma cholg'ular guruhi (Changlar);

Torli-chertma (mizroblı) cholg'ular guruhi

(Rubob-primalar, Qashqar ruboblari, Afg'on ruboblari, Dutorlar, Dutor-baslar, Dutor-kontrabaslar);

Zarbli cholg'ular guruhi

(Litavralar, Doyra, Nog'ora, Qayroq, Safoyil, Kichik baraban, Katta baraban, Zil (tarelkalar) va boshqalar);

Torli-kamonli cholg'ular guruhi

(I va II g'ijjaklar, g'ijjak-al'tlar, g'ijjak-qobuz baslar, g'ijjak-qobuz kontrabaslar).

Yuqorida sanab o'tilgan orkestrni tashkil etuvchi guruhlar tarkibiga kiradigan cholg'ular nomi, sozlanishi, yozilishi va eshitilishi bo'yicha diapazoni, transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi haqidagi **ma'lumotlar jadvallar tarzida o'zlashtirilishi** yaxshi natijalar beradi.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni nimalardan iborat???

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakklardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqr o'rganish;

- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

Tayanch tushunchalar: cholg'ushunoslik, o'zbek xalq cholg'u asboblari orkestri, partitura, partitura yaratish, to'liq katta orkestrlar tarkibi

Mustaqil ish mavzusi:

Orkestrlar va ularning turlari;
XChO va uning partiturasi;
Orkestr tarkibidagi turli guruhlar tavsifi;

Adabiyotlar:

Mansurov A. Cholg'ulashtirish bo'yicha amaliy namunalar va mashqlar. T., 2006; T., 2008.

Alimov F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, «Musiqa», 2004.

Petrosyants A. Instrumentovedenie «Uzbekskie narodnie instrumenti». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.

Varelas S. Partitura o'qish kursi. T., "O'qituvchi". 1974.

Gienko B. Instrumentovka (dlya orkestra uzbekskix narodnix instrumentov). Tashkent, 1970.

2- mavzu: Torli-kamonli cholg'ular

Torli-kamonli cholg'ular guruhiga kiradigan - g'ijjak, g'ijjak-al't, g'ijjak-bas va g'ijjak-kontrabas tavsifi, tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, texnik imkoniyatlari haqida...

Quyida keltirilgan jadvalga e'tibor qaratamiz. Bugungi mashg'ulotimizda o'rghanishimiz kerak bo'lган cholg'ularning nomlanishi, sozlanishi, yozilishi va eshitilishi bo'yicha diapazoni va transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi (agar qaysidir bir cholg'u shu toifa bo'lsa!), bilishimiz lozim bo'lган zarur ma'lumotlar unga kiritilgan. Aynan jadval shaklida berilgan bu bilimlarni qayta-qayta takrorlash yo'li bilan ko'p yillarga esda qoldirish mumkin. Buni birgalikda sinab ko'ramiz...

Shu bilan birga Sizlardan vakillar tanlaymizda, amaliy tarzda har bir cholg'uni chalib ko'rasizlar. Qolganlar orkestr va ansambl' mashg'ulotlarida ham bu ishni bajarib ko'rsangiz bo'ladi...

O'zXChOning «Torli-kamonli cholg'ular guruhi» tarkibi bo'yicha
m a ' l u m o t l a r

Cholg'uni ng nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozi tsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilish i bo'yicha	Eshitilishi bo'yicha	
g'ijjaklar (I va II)	1- tor «Mi» ikkinchi oktava; 2- tor «Lya» birinchi oktava; 3- tor «re» birinchi oktava; 4- tor «Sol» kichik oktava.	«Sol» kichik oktavadan - «Lya» 4- oktavagacha	Yozilga nidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi
g'ijjak-al'tlar	1- tor «Lya» birinchi oktava; 2- tor «re» birinchi oktava; 3- tor «Sol» kichik oktava; 4- tor «Do» kichik oktava.	«Do» kichik oktavadan - «Lya» 3- oktavagacha	Yozilga nidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi
g'ijjak-qobuz baslar	1- tor «Lya» kichik oktava; 2- tor «re» kichik oktava; 3- tor «Sol» katta oktava; 4- tor «Do» katta oktava.	«Do» katta oktavadan - «re» 3- oktavagacha	Yozilga nidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi

<p>g‘ijjak-qobuz kontrabaslar*</p>	<p>1-tor «Sol» kichik oktava; 2-tor «re» kichik oktava; 3-tor «Lya» katta oktava; 4-tor «Mi» katta oktava.</p>	<p>«Mi» katta oktavadan - «Lya» 2-oktavagacha</p>	<p>«Mi» kontr oktavadan - «Lya» 1-oktavagacha</p>	<p>Yozilgani dan 1 oktava past eshitiladi</p>
------------------------------------	--	---	---	---

*) g‘ijjak-qobuz kontrabas torlarining sozlanishi, notada yozilishi bo‘yicha ko‘rsatildi.

Ushbu fan bo‘yicha ma’lum bir mavzularni o’tib bo‘lingandan so’ng, oliy ta’lim muassasasining xususiyatlaridan kelib chiqib amaliy mashg‘ulotlar olib borilishi nazarda tutiladi. Bu - nazariy o’rganilgan bilimlarni, amaliy ko’nikmalar orqali mustahkamlab borishga yordam beradi. Xususan, amaliy mashg‘ulotlarda har bir mavzu rozasidan cholg’uni chalib ko‘rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta’sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko‘rish yaxshi natija beradi. Amaliy mashg‘ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy (yoki ijro) yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o’rganish vazifalari ham qo‘yiladi. Bugungi mavzudan boshlab amaliy ishlarni ham bajarib boramiz. Oxir oqibat barcha amaliy ishlarimiz “cholg’ulashtirish”, deb nomlanadigan ijodiy ishga olib kelishi kerak. Bu nima???

CHOLG‘ULASHTIRISH - IJODIY JARAYONDIR.

Har tomonlama keng va chuqur bilimlarga ega yuqori malakali musiqa san’ati sohasidagi mutaxassislarini sifatli tayyorlash ishida muhim fanlardan hisoblangan - “cholg‘ulashtirish” fanini yuqori darajasida o‘rgatib borish ham ta’lim ishlariga mas’ullar, ijodkor ustozlar faoliyatida katta ahamiyat kasb etadi. chunki, bizlar yashayotgan davr, zamon o‘zgarishlarga yuz tutib borishi bilan har qanday san’at turi, adabiyot, umuman olganda madaniyatimiz, xohlasak - xohlamasak, **j a h o n m a d a - n i y a t i d a y u z b e r a y o t g a n o‘z g a r i s h v a y u t u q l a r , y a n g i l i k l a r d a n t a’** sirlanib, k u n s a y i n o‘z g a r i b b o r a v e r a d i . Ayniqsa, insoniyatni kelajakka tezkor etaklayotgan, kun sayin rivojlanib borayotgan zamonaviy yuksak texnologiyalar va tezkor axborotlar davriga aylanayotgan XXI asrda buni yaqqol sezishimiz mumkin.

Orkestr musiqasi tarixidan **XX asrning birinchi choragi** faqat an’anaviy ansambl’ ko‘rinishidagi monodik ijrochilik bo‘lgani, **1930-40 yillarda** nota bilan chala oladigan, lekin an’anaviy ijro yo‘llariga yaqin bo‘lgan ikki, uch ovozli («yo‘lli» deyilsa to‘g‘riroq bo‘lardi) musiqiy namunalarini ijro eta oladigan jamoalar tashkil topgani ma’lumdir. **1950-60 yillarda** an’anaviy ashula va raqs (yoki aynan sozandalar) ansambllarida ham ko‘p ovozli cholg‘u yo‘llari bilan sayqal berib ijro etishga intilishlar sezildi, polifoniya, deb nomlanadigan musiqiy fikrni anglatadigan uslublar paydo bo‘ldi. o‘tgan asrning **oxirgi choragida** esa to‘laqonli orkestr musiqasiga xos haqiqiy ko‘p ovozli, keng ma’noda simfonik orkestrlar uchun yaratiladigan musiqa yozuviga, orkestrlashtirish yo‘sinlariga tortib borayotgan o‘z musiqamiz shakllanganligini, **XXI asrning** boshidan esa jahon talablariga javob bera oladigan, avvalam bor o‘ta zamonaviy talaygina asarlar yaratilganligi kuzatildi.

Yuqorida eslab o‘tilgan bunday o‘zgarishlar va rivojlanish dinamikasi zamirida zamon va davrlar talabidan kelib chiqib ijodiy izlanishlar qilgan kimningdir - kompozitor, bastakor yoki cholg‘ulashtirish ishidan yaxshi xabardor bo‘lgan ijodkor insonlarning mashaqqatli mehnati yotadi. Yana bir narsaga alohida e’tibor qaratish joizki, kichik kuyni orkestr uchun asar

darajasiga ko‘tarish, cholg‘ulashtirish, ya’ni orkestrlashtirish asli katta kasbiy mahorat talab qiladi. Kichik bo‘lsa-da, fortepiano uchun, ovoz yoki biror bir cholg‘u uchun yozilgan taniqli ma’lum bir kamer asarni cholg‘ulashtirib, uni badiiy jamoa tomonidan ijro ettirish partitura ijodkoriga zavq bag‘ishlaydi, albatta. Demak, kichik kuyni ijrochilardan tashkil topgan badiiy jamoa uchun **ko‘p ovozli (polifonik) musiqaga o‘girish**, ko‘plab shinavandalarning e’tiborini yoqimliliqi bilan o‘ziga jalb qilaoladigan ijod mahsuliga - orkestr uchun asarga aylantirish ham katta san’atdir.

Ko‘p yillar mobaynida sinovdan o‘tgan ma’lum bir tajribaga asosan konservatoriylar ta’lim ishlarini olib borish tizimida «cholg‘ulashtirish» fanini amaliy o‘rgatish uslubiyati azaldan shakllangan. Ustozlar har bir talabaning imkoniyatlarini o‘rganib, musiqa yo‘nalishidagi boshlang‘ich va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida to‘plangan bilim va ko‘nikmalar majmuasiga individual yondoshib, ijodiy ish uchun xalq kuylarini va kompozitorlarning fortepiano uchun yoki kamer-cholg‘u, vokal asarlari klavirlarini saralab tanlaydilar. cholg‘ulashtirish ishini o‘zlashtirish jarayonida birdaniga to‘liq katta orkestrga cholg‘ulashtirish mushkul vazifa. Albatta, oldin orkestrning kichik guruhlariga, so‘ng kamer orkestr tarkibi uchun maxsus mashqlar bajarib, «qo‘lni o‘rgatib» olinadi. Sekin-asta nozik tembrlar, musiqiy jilolar ko‘rinishi ko‘zga va qulopqa o‘rnasha boshlaydi. cholg‘ulashtirish, boshqacha aytganda, orkestrlashtirish faoliyatiga texnik ish sifatida qarash noto‘g‘ridir. Ma’lum bir mahoratga ega bo‘lish, yaratuvchilikdan zavqlana olish, qolaversa, shu intellektual mehnat mahsulidan boshqalarni ham bahramand qilish ijodkor insonlar uchun ezgu ishdil. **Demak, o‘quv fani bo‘lmish - cholg‘ulashtirish asosida ham ijodiy jarayon yotadi.**

MASHQLAR VA AMALIY NAMUNALAR

Y.Niyozovning “Cholg‘ulashtirish bo‘yicha amaliy namunalar va mashqlar” qo‘llanmasidan foydalanim, **ch o l g ‘ u l a s h t i r i s h** - deb nomlanadigan ijodiy jarayonni orkestr guruhlari uchun maxsus tuzilgan **t o p s h i r i q - m a s h q l a r** ni bajarib, asta-sekin shakllantirish mumkin. Ustozlarning ko‘p yillik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ilk ishlarni torlikamyonli cholg‘ular uchun mashqlardan boshlagan ma’qul ekan. Bunga asosiy sabab - torlikamyonli cholg‘ular guruhi Simfonik orkestrda ham o‘zbek xalq cholg‘ulari orkestrida ham etakchi, ya’ni «bosh guruh» hisoblanadi. Ijroda asosiy «yuk»ni o‘z zimmasiga oladi, musiqiy obrazlar etarli darajada yangrab, tinglovchini ta’sirlantirib borishiga ko‘maklashadi. So‘ngra, mazkur qo‘llanma uchun belgilab olingan maqsad va vazifalaridan kelib chiqib - «Puflamalar», «Torli-urmalar» va «Torli-chertmalar» guruhlari uchun cholg‘ulashtiramiz.

Tavsiya etilayotgan mashqlar musiqiy parchalar sifatida - «A)», «B)» va «V)» qismlarga bo‘lingan maxsus topshiriq-lardan iborat. Har bir qism (masalan, «A» bandlar) - o‘lchov, tonallik, temp nuqtai nazaridan o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liqidir.

Qo‘llanmada berilgan A m a l i y n a m u n a l a r d a orkestrning ma’lum bir guruhlari uchun cholg‘ulashtirishga ajratib berilgan musiqiy parchalarning «A» bandlari qo‘llanma muallifi tomonidan - tovushlar diapa-zoni, kuy tuzilishi, usul va garmoniyani mujassamlagan faktura nuqtai nazaridan, tanlangan cholg‘ularga ijodiy yolg‘izla-nishda taqsimlab chiqildi. «Ijodiy yolg‘izlanish jarayoni»ni qo‘llanma matnida birma-bir ta’riflash mushkul ish (!), u qanday bo‘lishini har bir musiqachi albatta o‘z boshidan kechirishi kerak. Aks holda tushunish ham tushuntirish ham qiyin. «A» bandli mashqlar qanday cholg‘ulashtirilganini, **ya ’ n i** yosh musiqachi tomonidan cholg‘ularga qanday taqsimlanganligini ustoz bilan birga tahsil qilish kerak.

Barcha orkestr guruhlari uchun ma’lum bir vazifalarni bajarib bo‘lganimizdan keyin ularni birlashtirish, **yagona partitura** ko‘rinishini tuzish sir-asrorlarini o‘rganamiz. Shunda «Zarblijar»ni har bir guruh bo‘lagi uchun «ijodiy boyitish zarurati»ni inobatga olib tanlaymiz va usullarini o‘rnatilgan tartib-qoidalar asosida yozamiz. Bu xil namunalar mazkur qo‘llanmaning 9-bo‘limida - **«Orkestr guruhlari uchun cholg‘ulashtirilgan amaliy namunalar va**

mashqlarni yagona to'liq tarkibga birlash-tirish bo'yicha ijodiy topshiriq» mavzusida o'z aksini topgan.

Tayanch tushunchalar: Torli-kamonli cholg'ular, g'ijjak, g'ijjak-al't, g'ijjak-bas, g'ijjak-kontrabas, sozlanish, diapazon, texnik imkoniyatlar

Mustaqil ish mavzusi:

Orkestrlar va ularning turlari;

XChO va uning partiturası;

Orkestr tarkibidagi turli guruuhlar tavsifi;

Tanlangan cholg'uning paydo bo'lism tarixi, orkestrdagi o'rni, tuzilishi, diapazoni va ijob imkoniyatlari;

Turli cholg'ularda ijrochilik maktablarining shakllanishi mohir sozanda va ustozlarning o'rni;

Cholg'ular haqidagi o'quv adabiyotlari;

Orkestr musiqasi rivojlanishida kompozitorlar ijodi va yo'nalishlari;

Turdosh cholg'ularda amaliy ijrochilik tajribalari.

**«Torli-kamonli cholg'ular guruhi» uchun cholg'ulashadirish
mashqlari**

Torli-kamonli cholg'ular guruhiga kiradigan cholg'ularda to'rttadan torlari borligi barchaga ma'lum. Demak, ularning har birida ikki, uch yoki to'rt tovushlardan iborat bo'lgan tovushlar jamlamasini yoki aniq nomlanganakkordlarni ham ijro etish mumkin. Akkordlar guruhdagi cholg'u-larga taqsimlanayotganda tovush oraliqlari kvintalarni, sekstalarni tashkil etsa, ular jarangdor bo'ladi va osongina ijro etiladi. Orkestr fakturasi to'lib turadi, keng qamrovli va yoqimli sadolar taraladi. cholg'ulardagi bunday qulayliklar ijrochi sozandalarga ham manzur bo'ladi.

Quyidagi mashq-topshiriqlarni ushbu torli-kamonli cholg'ular guruhi uchun cholg'ulashiting:

Adabiyotlar:

Mansurov A. Cholg'ulashadirish bo'yicha amaliy namunalar va mashqlar. T., 2006; T., 2008.

Abdullaeva O. Ansambl' cholg'ularini o'rganish. Toshkent, «Musiqa». 2006.

Alimov F. O'zbek xalq cholg'u orkestri. Toshkent, «Musiqa», 2004.

Toshmuxamedov M. g'ijjak darsligi. Toshkent, 1996.

Petrosyants A. Instrumentovedenie «Uzbekkie narodnie instrumenti». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.

Yanov-Yanovskiy F. Zadachi po instrumentovke. T., «Izd. im. G.Gulyama». 1988. Varelas S. Partitura o'qish kursi. T., "O'qituvchi". 1974.

Gienko B. Instrumentovka (dlya orkestra uzbekskix narodnix instrumentov). Tashkent, 1970.

5-mavzu: Torli-chertma (mizrobl) cholg'ular

Guruuga kiradigan - rubob prima, qashqar rubobi, afg'on rubobi tavsifi, tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, texnik-badiiy imkoniyatlari va shtrixlari haqida...

Quyida keltirilgan jadvalga e'tibor qaratamiz. Bugungi mashg'ulotimizda o'rganishimiz kerak bo'lgan cholg'ularning nomlanishi, sozlanishi, yozilishi va eshitilishi bo'yicha diapazoni va transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi (agar qaysidir bir cholg'u shu toifa bo'lsa!),

bilishimiz lozim bo'lgan zarur ma'lumotlar unga kiritilgan. Aynan jadval shaklida berilgan bu bilimlarni qayta-qayta takrorlash yo'li bilan ko'p yillarga esda qoldirish mumkin. Buni birgalikda sinab ko'ramiz...

Shu bilan birga Sizlardan vakillar tanlaymizda, amaliy tarzda har bir cholg'uni chalib ko'rasizlar. Qolganlar orkestr va ansambl' mashg'ulotlarida ham bu ishni bajarib ko'rsangiz bo'ladi...

O'zXChOning «Torli-chertma (mizroбли) cholg'ular guruhi»¹ tarkibi bo'yicha
m a ' l u m o t l a r

Cholg'uni ng nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozi tsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilish i bo'yicha	Eshitilis hi bo'yicha	
rubob-prima	1- tor«Mi» ikkinchi oktava; 2- tor «Lya» birinchi oktava; 3- tor «re» birinchi oktava; 4- tor «Sol» kichik oktava.	«Sol» kichik oktavadan - «Mi» 4-oktavagacha	Yozilganidek eshitiladi	Transpozitsiya qilinmaydi
Qashqar rubobi 2	1-va 2- qo'sh torlar - «Lya» birinchi oktava; 3- va 4- qo'sh torlar «Mi» birinchi oktava; 5-tor «Si» yoki «Lya» kichik oktava.	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan - «Lya» 3-oktavagacha	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan - «Lya» 2-oktavagacha	Yozilgani dan 1 oktava past eshitiladi
Afg'on rubobi **	1-va 2- qo'sh torlar - «Lya» birinchi oktava; 3- va 4- qo'sh torlar «Mi» birinchi oktava; 5-tor «Si» yoki «Lya» kichik oktava.	«Si» yoki «Lya» kichik oktavadan - «Lya» 3-oktavagacha	«Si» yoki «Lya» katta oktavadan - «Lya» 2-oktavagacha	Yozilgani dan 1 oktava past eshitiladi

Mashg'ulotimizning amaliy ishlariga bir qiziqarli savolni o'rtaga tashlasam???

- BIR OVOZLI MONODIK KUY ASOSIDA PARTITURA YARATSA BO'LADIMI?!

Xa, partitura yaratса bo'ladi! . . .

Avvalam bor o'sha - «bizga kerak kuy»ni tanlashimiz darkor, so'ng yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib ko'p ovoz bo'lib ijro eta oladigan ansambl' yoki orkestr tarkibini tuzish lozim. Shu o'rinda yana bir savol tug'iladi:

- Bir ovozli monodik kuy asosida **partitura** yaratilsa, erishilgan ijod mahsulini

1 Assar mohiyatidan kelib chiqib, partituralarda Tanbur, Sato, Ud kabi cholg'ular ham ishlatalishi mumkin;

2 Ushbu cholg'ular torlarining sozlanishi, notada yozilishi bo'yicha ko'rsatildi.

«cholg‘ulashtirish» deb atash kerakmi yoki «orkestrga moslashtirish» debmi?!

Ijodiyot ahli, agar bir kuy (xoh u xalqники bo‘lsin, xoh bastakorniki!) xalqning qulog‘iga ko‘p yillar mobaynida singib ketgan bo‘lsa-da, uning asosida orkestr bo‘lib ijro etish uchun partiturasini tuzilsa, bunday holatlarda - **«orkestrga falonchi (!) moslashtirgan»** deb belgilash ma’qulligini ta’kid-lashmoqda. Bunda mantiq bor, albatta. Orkestrlashtirish bosqichlari haqidagi fikrlarimizga yana qaytamiz.

Shunday qilib cholg‘ulashtirish uchun kuy ham tanlanib, orkestr tarkibi tuzilgandan so‘ng ijodiy jarayonning asosiy rejalshtirish qismi, bajarish ishlari o‘z-o‘zidan bir-biriga bog‘lanib keladi,

ya ‘ni:

- a) qaysi cholg‘ularga asosiy kuy yo‘lini beramiz?;
- b) qaysi cholg‘ular garmonik yoki ritmik ko‘mak vazifasini bajaradi?;
- v) zarbli cholg‘ularga qanday usul tanlaymiz?;
- g) partiturada qo‘sishimcha kuy yo‘llarini to‘qib yozish kerakmi?;
- d) yana nimalarga e’tibor bermoq lozim?
- kabi fikrlar jamlanadi.

Amaliy namunalar va mashqlarga o‘tishdan oldin, misol tariqasida, XX asrning taniqli bastakori **Faxriddin Sodiqov** tomonidan yaratilgan - **«O’zbekcha val’s»**ining monodik kuyini, ya’ni, bir ovozdagi kuy yo‘lini chalib yaqindan tanishib chiqaylik. So‘ng uning ko‘p ovozlilik sayqalini berib ijro etishga mo‘ljallangan, mazkur o‘quv qo‘llanmasi muallifi tomonidan orkestrga moslashtirilgan partitura namunasi havola qilinadi. Uni ham ko‘p marotaba chalib, diqqat bilan tinglash zarur.

«O'ZBEKCHA VAL'S»

(Kuyning dastlabki monodik ko'rinishi)

Faxriddin SODIQOV musiqasi

Tempo di valse

1

Musical score for section 1. The key signature is one sharp (F#). The time signature is 3/8. The tempo is Tempo di valse. The score consists of two staves. The first staff starts with a dynamic *p*. The second staff starts with a dynamic *mf*. The music features eighth-note patterns with grace notes and slurs. A bracket labeled "simile" covers the last four measures of the first staff.

II

2

Musical score for section 2. The key signature is one sharp (F#). The time signature is 3/8. The tempo is indicated by "II". The score consists of two staves. Measures 1 through 6 show eighth-note patterns with grace notes and slurs. Measure 7 begins with a dynamic *f*.

22

Musical score for section 2, measure 22. The key signature is one sharp (F#). The time signature is 3/8. The score consists of two staves. Measures 1 through 6 show eighth-note patterns with grace notes and slurs. Measure 7 begins with a dynamic *f*.

3

8

Musical score for section 3. The key signature is one sharp (F#). The time signature is 3/8. The tempo is indicated by "3". The score consists of two staves. Measures 1 through 6 show eighth-note patterns with grace notes and slurs. Measure 7 begins with a dynamic *f*.

44

55

66

77

88

98

107

119

130

138

4

5

6

7

8

tr

tr

mf

p — *f*

tr

tr

p

mp

«O’zbekcha val’s» partiturasining tahlili (O.Abdullayeva qo’llanmasi bo'yicha)

Bastakor Faxriddin Sodiqovning «O’zbekcha val’s» deb nomlangan bir ovozli monodik asar kuyi va uning asosida yaratilgan (orquestrga moslashtirilgan varianti) yuqorida keltirilgan parti-turani quyidagi savollarga binoan ustoz bilan birga tahlil qiling, xulosa chiqaring:

1. Xalq cholg‘ulari kamer orkestri ijrosi uchun moslashtirilgan «O’zbekcha vaFs»ning asosiya mavzu - kuy yo‘li partiturada qaysi cholg‘ularga bo‘lib berilgan?
2. Qaysi cholg‘ular (guruqlar) garmonik yoki ritmik ko‘makchi vazifasini bajarmoqda?
3. Zarbli cholg‘u sifatida tanlangan «doyra yo‘li»da val’s usuli necha xil ko‘rinishda namoyon bo‘lmoqda? Bunday taktlarini belgilang?
4. Asosiy mavzuga yo‘ldosh sifatida 2-kuy yo‘li, 3-kuy yo‘li to‘qilganmi, to‘qilgan bo‘lsa ular qaysi paytlarda va nechanchi taktlarda paydo bo‘lmoqda?
5. Umuman olganda ushbu - «O’zbekcha val’s» kuyi asosida yaratilgan orkestr uchun partituraning qanday yutuq va kamchiliklari bor?

Tayanch tushunchalar: torli-chertma (mizroqli) cholg‘ular, rubob prima, qashqar rubobi, afg‘on rubobi

Mustaqil ish mavzusi:

Orkestr tarkibidagi turli guruqlar tavsifi;

Tanlangan cholg‘uning paydo bo‘lish tarixi, orkestrdagи o‘rni, tuzilishi, diapazoni va ijro imkoniyatlari;

Turli cholg‘ularda ijrochilik maktablarining shakllanishi mohir sozanda va ustozlarning o‘rni;

Cholg‘ular haqidagi o‘quv adabiyotlari;

Turdosh cholg‘ularda amaliy ijrochilik tajribalari.

Taniqli xalq kuylari, mumtoz qo‘shiq va ashulalar ohanglari asosida yaratilgan shunga o‘xshash orkestrga moslashtirilgan partituralar bor-yo‘qligini surushtiring, kutubxona jamg‘armasidan foyda-lanib ro‘yxat tuzing va topilgan namunalarni tahlil qiling;

Audio yoki CD yozuvini topib tinglab ko‘ring.

Adabiyotlar:

Mansurov A. Cholg‘ulashhtirish bo‘yicha amaliy namunalar va mashqlar. T., 2006; T., 2008.

Abdullaeva O. Ansambl’ cholg‘ularini o‘rganish. Toshkent, «Musiqa». 2006.

Alimov F. o’zbek xalq cholg‘u orkestri. Toshkent, «Musiqa», 2004.

Dadamuxamedov A. rubob prima darsligi. Toshkent, 2004.

Ergashev g‘. Afg‘on rubobi darsligi. Toshkent, 2004.

Nurmatov X. Qashqar rubobi. Toshkent, 2003.

Qosimov r. Musiqa asboblari - «Ud». Toshkent, 2002.

Qosimov r. An‘anaviy tanbur ijrochiligi. Toshkent, 2002.

Petrosyants A. Instrumentovedenie «Uzbekkie narodnie instrumenti». T., «Izd. im. G.Gulyama». 1990.

Yanov-Yanovskiy F. Zadachi po instrumentovke. T., «Izd. im. G.Gulyama». 1988. Varelas S. Partitura o‘qish kursi. T., “O’qituvchi”. 1974.

Gienko B. Instrumentovka (dlya orkestra uzbekskix narodnix instrumentov). Tashkent, 1970.

6-mavzu: Torli-chertma (mizroblı) cholg'ular

Guruhgа kiradigan -dutorlar, dutor-bas, dutor-kontrabas va orkestrlarda kam ishlatiladigan cholg'ular - ud, tanbur, sato tavsifi, tuzilishi, sozlanishi, diapazoni, texnik-badiiy imkoniyatlari va shtrixlari haqida...

Quyida keltirilgan jadvalga e'tibor qaratamiz. Bugungi mashg'ulotimizda o'rganishimiz kerak bo'lган cholg'ularning nomlanishi, sozlanishi, yozilishi va eshitilishi bo'yicha diapazoni va transpozitsiya qilinishi yoki qilinmasligi (agar qaysidir bir cholg'u shu toifa bo'lsa!), bilishimiz lozim bo'lган zarur ma'lumotlar unga kiritilgan. Aynan jadval shaklida berilgan bu bilimlarni qayta-qayta takrorlash yo'li bilan ko'p yillarga esda qoldirish mumkin. Buni birgalikda sinab ko'ramiz...

Shu bilan birga Sizlardan vakillar tanlaymizda, amaliy tarzda har bir cholg'uni chalib ko'rasizlar. Qolganlar orkestr va ansambl' mashg'ulotlarida ham bu ishni bajarib ko'rsangiz bo'ladi...

**O'zXChOning «Torli-chertma (mizroblı) cholg'ular guruhi»* tarkibi bo'yicha
m a ' l u m o t l a r**

Cholg'uni ng nomi	Sozlanishi	Diapazoni		Transpozi tsiya qilinishi yoki qilinmasligi
		Yozilish i bo'yicha	Eshitilis hi bo'yicha	
